

Boshlang`ich sinflarda matematika fanini o'qitishda didaktik o`yinlarning ahamiyati

Andijon viloyati Shahrixon tumani 34-maktabning boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Yusupova Gulziraxon Ixtiyor qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini matematika fanidan didaktik o`yinlarning ahamiyati haqida fikr berilgan.*

Kalit so`zlar: *didaktik o'yinlar, zamonaviy ta'lim, bilim, malaka, matematika darslari.*

Har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda. Hozirgi maktab o`rindiqlarida o`tirdan yosh avlod ertaga bizning qo`limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o`zidan keying avlodga yetkazuvchi vorislarimiz, O`zbekiston buyuk kelajagining egalaridir! Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilimi, tajribasi kasbiy tayyorgarligiga bog`liqdir. Yoshlarni hayotda o`z o`rinlarini topishlari, o`z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan taminlash doimo davlatimiz va jamiyatimiz diqqat e`tiborida bo`lib kelmoqda. Uzluksiz ta`lim tizimida davom etayotgan islohotlarning eng muhim bosqichi boshlang`ich sinf o`qituvchisi oldiga shunday ma`suliyat qo`ydiki, bu o`qituvchi faoliyatining o`quv-biluv tuzilmasini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdan iborat. Matematika darslari samaradorligini oshiruvchi usullardan biri ko`rgazmali vositalar yordamida darsda muammoli vaziyatni vujudga keltirish bo`lib bu usul mashg`ulot boshlanishida o`quvchilarga taklif etiladi. Masalan : «Blits»-o`yini, «Keys texnologiyasi, orqali o`tilayotgan mavzuni ifoda etadigan maxsus muammoli topshiriqlar beriladi. Muammoli vaziyat o`quvchilarga yangi bilimlar, yangi usul va xarakterni izlab topish imkonini beradi. Bunda o`qitish jarayonida samarali

foydalanish ta'lim sifatini yaxshilashga, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limning eng asosiy bo'g'ini hisoblangan umumiy o'rta ta'lim tizimida matematika darslarini fanlararo aloqadorlik va ko'rsatmalilik asosida tashkil etib, o'quvchilarning faollik, tezkorlik hamda mantiqiy fikrlashi har bir harakatda namoyon bo'lib tursin, rivojlangan davlatlar yoshlari bilan nafaqat bir safda, kerak bo'lsa yuqori o'rinlarda bo'lishlari kerak. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri-ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida nazariy bilimlarini o'quvchilarga yatkazib berish, ulardan ma'lum bir ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishdir. Buning uchun pedagogdan yuksak mahorat va ta'lim jarayonida yangicha yondoshuvni talab etadi. Bugungi davr jarayonini ta'limning interfaol metodlari asosida olib borishni talab etmoqda. Xususan matematika fanini o'qitishda olib boriladigan mashg'ulotlarda ham interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishga tayyorlanishini tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'lim sohasida ma'lum bilim va uquvlarni egallash va bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirish kiradi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkabdir. Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlardan chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. O'qitish jarayonida o'quvchida mustaqil bili olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi kunning talabidir. Interfaol mashg'ulot-o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot, bu jarayon hamkorlikda kechadi. Interfaol metodlarning qo'llanishi majburiy matematika darsi jarayonini beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, barcha o'quvchilarni bir oz bo'lsada, o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. Interfaol metodlarning mohiyati o'qitish

jarayonida o`quvchi faolligini oshirish, o`quvchini pedagogic faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Maqsadi-demokratik jamiyatning faol fuqorolarini tarbiya qilish. Bunday metodlarni qo`llash orqali o`qituvchi o`quvchini o`z fikrini shakllantirishga, ifodalashga, maqbul yo`lni tanlash va buning uchun ma`suliyat his etishga o`rgatadi. Shu bilan birga bolalarda o`zaro hurmat, ma`suliyat, halollik, e`tibor va tirishqoqlik xususiyatlarini tarbiyalashga ham harakat qiladi. O`quvchilarni faollashtirish uchun daes jarayonida q`llaniladigan usullarni to`g`ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsda mavzuga qo`yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo`li usuli puxta ko`rib chiqilishi lozim. O`qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usuli o`quvchiga nima berishini oldindan ko`ra olishi va darsni to`g`ri tashkil qilishi kerak. Demak, siz qo`llamoqchi bo`lgan interfaol usulini tanlab bo`lgach, o`zingizga kerakli rasm, tarqatma material, ko`rgazmalardan keragini tayyorlab, konvertga solib qo`yib, mavzularni o`rgatishda ishlatishingiz lozim. Taqdim etayotgan metodik tavsiyamda matematika darsini o`tishda keng qo`llaniladigan hamda ijobiy natija beradigan interfaol usullar berilgan. Men bu o`yinlarni darslarimda qo`llayman va yaxshi natijaga erishaman. „**Ortiqchasini top`**” **o`yini**. Maqsadi: predmetlar orasidagi o`xshash va farqli tomonlarini ajratishni o`rgatish. Mazmuni: Bu o`yinda yangi mavzuga oid ma`lumotlar beriladi va bu mavzudan tashqari ham ma`lumotlar beriladi. O`quvchilar ortiqcha ma`lumotni topa olishlari kerak. Bu o`yin orqali o`quvchilarning tafakkuri, mantiqiy fikrlashi, o`xshash va farqli jihatlarni ajrata olishi rivojlantirib boriladi. „Quvnoq sonlar`` o`yini. Bu o`yindan ko`pincha 1-sinflarda foydalanish ko`proq samara beradi. 10 ichida qo`shish va ayirishni o`rgatishda o`qituvchi misollar yozilgan tarqatmalarni o`quvchilarning bir guruhiga beradi, javoblarni esa boshqa guruhga beradi. O`quvchilar esa o`zlariga mosini topishi kerak bo`ladi. Javoblari to`g`ri topilgan misollar javobi quvnoq sonlar qatoriga kirgiziladi. «**Besh daqiqqa`**” **o`yini**. Bu o`yinni matematika darsida xohlagan mavzuni o`qitishda qo`llash mumkin. O`quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima

yozayotganligini ko`rmasin. O`yinni o`qituvchi yoki a`lochi o`quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O`quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O`quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Masalan, kim ko`p toq son yoki juft son yozish vazifasi bo`lsa eng ko`p yozgan o`quvchi g`olib hisoblanadi. Bu o`yindan ko`partirish va bo`lish jadvallarini o`rganishda foydalansa yaxshi samara beradi." Xatoni top " o'yini. Bu o`yinda mavzuga oid ma`lumotlar yoki misollar ham berish mumkin. Shular orasiga xato ma`lumot ham joylanadi. O`quvchi xatosini ajrata olishi kerak bo`ladi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, o`quvchilarga matematika darslarida ularning matematikaga oid bilimlariga bo`lgan tafakkur tushunchalarini o`stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib xulosalar chiqarishda mazkur ta`lim usullaridan keng va o`rinli foydalanish ularning tafakkurini shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Darsni noan`anaviy tarzda tashkil etish uchun, interfaol metodlarni o`rinli qo`llash uchun avvalo o`qituvchi bu metodlar bilan tanish bo`lishi kerak. Shundagina u darsida shunday metodlarga o`rin bera oladi. Demak o`qitishni samaraliroq qilish, o`quvchilarning darsdagi faolligini oshirishda interfaol metodlar va didaktik o`yinlarning ahamiyati kattadir. O`yinlar boshlang`ich sinf o`quvchisi tabiatiga eng yaqin faoliyat turi hisoblanadi. O`qituvchi izlanishga, yangilikni qo`llashga harakat qilsa, bu o`quvchilar bilimini mustahkamlanishida muhim samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mavlonova, Arabova, Salohiddinova: „Boshlang`ich ta`limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish”
2. Abdullayeva, Xamedova, Husanova: „Boshlang`ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish”
3. „Boshlang`ich ta`lim” jurnallari
4. ziyonet.uz